

**DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11501189>**

## **XX ASR TO‘MARISLARI YOXUD AYOL QO‘RBOSHILAR**

**Kimsanboyeva Zuhra Abdukarimovna**

IIV 1-son Toshkent akademik litseyi o‘qituvchisi

**Ibragimov Adham Hayidmurodovich**

IIV 1-son Toshkent akademik litseyi o‘qituvchisi

**Ro‘zimurodova Shaxrizoda Vohob qizi**

IIV 1-son Toshkent akademik litseyi o‘quvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Turkistonlik ayollar uchun Vatan ozodligi va tinchligi muqaddas hisoblangan. Olis yaqin tarixda bosqinchilarga qarshi turkiy ayollarimiz necha bor jang maydonlarida ot surganlar, vatanparvar kuchlarga boshchilik qilganligi barchamiz malumdir. Ayollardan maxsus bo‘linmalar tuzilgan bo‘lib, XX asr boshlarida Turkistonda istiqlolchilik harakati safida o‘zbek va boshqa qardosh turkey xalqlarning ayollari xam qatnashsada, yaqin o‘tmishimizda yaratilgan tadqiqot larda ayol qo‘rboshilar haqida ma’lumotlar deyarli uchramaydi.*

**KALIT SO‘ZLAR:** *Qo‘rboshi, tarix, To‘maris, Shakarkxon, Nodira qiz, qizil armiya, Muhiddinbek, Farg‘ona, Buxoro, Navoiy, Karmana.*

### **ABSTRACT**

*It is known from history that the freedom and peace of the Motherland are considered sacred for Turkestan women. We all know how many times our Turkish women rode on the battlefields and led the patriotic forces against invaders in recent history. Women’s units are security, and in the beginning of the 20th century, Uzbek and other Turkic women took part in the independence movement in Turkestan.*

**KEY WORDS:** *Korboshi, history, Tomaris, Shakarkhan, Nadira girl, Red Army, Muhyiddinbek, Fergana, Bukhara, Navoi, Karmana.*

**KIRISH.** O'tmish tarixda ma'lum bo'lishicha vatan ozodligi, yurt tinchligi uchun o'z jonini fido qilgan buyuk sarkardalar yani ayol qo'rboshilarning olib brogan jasoratlari el orasida yillar davomida o'ahamiyatini yo'qotmey kelmoqda bugungi kun yosh avlodlarni tarbiyalashda tarixchi ustozlar uchun vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jasorat sohiblariga nisbatan faxr tuyg'ularini uyg'otish bugungi kunning dolzarb masalasidan biridir.Turkistonagi qurolli harakat safida **Shakarxon qo'rboshi, Nodira qiz, Muhiddinbekning onasi** kabi ayol qo'rboshilar vatan ozodligi , yurt tinchligi uchun jasorat ko'rsatganlar[1].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI.** **Nodira qiz** - Karmana (xozirgi Navoiy) viloyatida qizil armiyaga qarshi kurashgan ayol qo'rboshi. Shu yerda 1904-yil tug'ilgan. U yoshlikdan chavandozlik vatirandozlik harbiy san'atini yaxshi o'rgangan. 1923-yil qizil askarlar Nodira qizning yashab turgan qishlog'iga bostirib kiradi, u 2 yil davomida Buxorodagi qizil askrlarga qarshi harakatga qatnashdi.1931-yilda Ibrohimbek qo'shini safida Nodirabek o'zining dastasi bilan janglarga kirgan,lekin shu yildan keyin Nodira qiz hayoti qanday bo'lganligi noma'lum[2]. Umuman xulosa qilinganda Buxoro hududida 1920-1935-yillarda 117 nafar erkak va ayol qo'rboshilar qizil armiyaga qarshi vatan ozodliga oz hissalarini qo'gan qahramonlar bo'lgan.

**NATIJA.** **Shakarxon qo'rboshi** - Farg'ona vodiysida qizil armiyaga qarshi kurashgan ayol qo'rboshi. U 1918-yilning yozidan Farg'onaning Oltiariqda yashovchi Tuychi qo'rboshining Toshqo'rg'on qishlog'idagi uyiga 30 kishilik xamrohlari bilan bostirib boradi. Farg'onalik A. Ibodinov, Y. Eminovlarning bergen ma'lumotiga ko'ra, 1921-yil oxirida Qayrag'och qishlog'ida qizil askarlar bilan bo'lgan jangda halok bo'lgan.

**MUHOKAMA.** Madaminbekning onasi-Farg'ona vodiysidagi istiqlolchilar safida o'zbek va qirg'iz ayollari orasidan ko'lab qo'rboshilar yetishib chiqqan. Muhiddinbek qo'rboshi O'sh va Oloy vohasida xarakat qilgan qirg'iz istiqlolchilarining yetakchisi bo'lgan. U uzoq yillar davomida qizil armiyaga qarshi kurashgan vatan qahramnidir [3].

**XULOSA.** Arxiv manbalarining guvohlik berishicha, 1922-yil 9-apreldadagi “mutloqo maxfiy” tamg‘ali ma’lumotda Muhiddinbekning onasi 30-50 nafar qirg‘iz ayollaridan iborat xarbiy guruhgaga rahbarlik qilgan. Muhiddinbek (1922-yil 26 sentabr)da O‘shdagi inqilobiy harbiy yig‘ilish xukmiga asosan otib o‘ldirilgan. Bu voqeadan so‘ng Farg‘ona viloyatida qizil askarlarga qarshi kurashgan. Madaminbekning onasining keying taqdiri noma’lum bo‘lib kelmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Shamsutdinov R., Mo‘minov X. O‘zbekiston tarixi. Andijon-2011.
2. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Xoshimov S. Vatan tarixi 2. T.: 2016.
3. Jasorat va buyuklik timsoli-ayol. T.: 2023.